


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 22 646,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 foizga teng bo'ldi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyator indeksi 115,8 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)–milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda
2022- yil yanvar-sentabr oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 101,6 foiz (umumiy ulushning 43,5 foizi), jami xizmatlar - 105,3 foiz (umumiy ulushning 34,7 foizi), sanoat – 115,9 foiz (umumiy ulushning 14,6 foizi) ni tashkil qildi.



Yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>2021- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	18 686,2	22 646,1	104,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 110,8	21 925,3	104,6
mahsulotlarga sof soliqlar	565,4	720,8	108,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 110,8	21 925,3	104,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 273,5	9 542,0	101,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 458,1	4 785,8	110,3
sanoat	2 095,8	3 209,7	115,9
qurilish	1 362,3	1 576,1	101,7
Xizmatlar	6 379,2	7 597,5	105,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	999,9	1 209,1	107,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 037,6	1 231,8	112,8
boshqa xizmat tarmoqlari	4 341,7	5 156,6	103,0

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga asosiy ta'sir sanoat (ishlab chiqarish indeksi 115,9 foiz) va xizmatlar (o'sish sur'ati 105,3 foiz) tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 71,9 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich 2021- yil yanvar-sentabr oylarida 75,2 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da
(jamiga nisbatan foizda)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 43,5 foizni tashkil qildi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga (45,7 foiz) nisbatan 2,2 punktga kamaydi, sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 21,8 foizni tashkil qilib, 2021 - yil yanvar-sentabr oylariga (19,1 foiz) nisbatan 2,7 punktga ko'pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 34,7 foizni tashkil qildi va o'tgan yilga (35,2 foiz) nisbatan 0,5 punktga kamaydi.



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-sentabr oylari, jamiga nisbatan ulushi)




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo'shgan hissassi 3,6 % ni tashkil etib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'zgarishsiz qolgan.

Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, foizda



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 699,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 foiz o'sishga erishildi.



*Yanvar-sentabr oylarida viloyat aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi va o'sish sur'ati*



*Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)*

2021- yil yanvar-sentabr

2022- yil yanvar-sentabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 34,7 foiz (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 35,2 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 5,5 foizni (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 5,5 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 5,6 foizni (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 5,7 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar–23,6 foizni (2021-yil yanvar-sentabr oylarida 24,0 foiz) tashkil etdi.

**O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining
asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari
(2022- yil yanvar-sentabr)**

	<i>O‘zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, % da</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati % da</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati % da</i>	<i>yanvar-sentabr 2021 - y.</i>	<i>yanvar-sentabr 2022- y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	627 476,9	105,8	22 646,1	104,7	3,6	3,6
Sanoat	391 948,4	105,3	13 136,2	115,9	2,6	3,4
Iste‘mol mollari	137 357,1	127,0	8 340,2	126,2	5,0	6,1
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	248 646,8	103,6	16 466,7	101,7	6,5	6,6
Investitsiyalar	189 999,8	105,0	6 780,8	108,7	3,4	3,6
Qurilish ishlari	94 117,9	106,3	3 602,3	101,7	4,1	3,8
Chakana tovar aylanmasi	214 086,7	110,8	8 978,2	112,9	4,1	4,2
Xizmatlar, jami	253 840,0	115,4	7 379,2	113,5	3,0	2,9
Eksport (mln. AQSh doll.)	14 051,5	135,7	199,3	120,1	1,6	1,4
Import (mln. AQSh doll.)	21 973,1	122,3	392,3	190,2	1,1	1,8

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 22 646,1 mlrd. soʻmni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,6 foizni tashkil qilib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 13 136,2 mlrd. soʻmni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,4 foizini) tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati 115,9 foizni tashkil etdi. 2022-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 8 340,2 mlrd. soʻmlik xalq isteʼmol mollari (respublikada xalq isteʼmol mahsulotlarining 6,1 foizi) ishlab chiqarilib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 126,2 foizni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 16 466,7 mlrd. soʻmni (respublikada qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlarining ulushi 6,6 foiz) tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati 101,7 foizga etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 780,8 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, oʻsish surʼati 2021- yilning shu davriga nisbatan 108,7 foizni (respublikadagi ulushi 3,6 foiz) tashkil etdi.

2022-yil yanvar-sentabr oylarida 3 602,3 mlrd. soʻmlik (respublikadagi ulushi 3,8 foiz) qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 101,7 foizni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8 978,2 mlrd. soʻmni (respublikadagi ulushi 4,2 foiz), oʻsish surʼati 2021- yilning shu davriga nisbatan 112,9 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha hajmi 7 379,2 mlrd. soʻmni, (respublikadagi ulushi 2,9 foizni) tashkil qildi va 2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan oʻsish 113,5 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 591,6 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,5 foizni), oʻsish surʼati 159,0 foizni, jumladan: eksport – 199,3 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,4 foizni), oʻsish surʼati 120,1 foizni, import– 392,3 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,8 foizni), oʻsish surʼati 190,2 foizni tashkil etdi.